

XORIJIY MAMLAKATLARDA TA'LIM TIZIMI

Xolmurodova Umida Meylimurod qizi

Guliston davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15547352>

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlarning ta'lism tizimlari o'r ganilib, ularning afzallikkali, metodik yondashuvlari va ta'lism siyosatidagi muhim jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, Finlandiya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlar misolida ta'lism sifati, o'qitish metodlari, baholash tizimlari, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston ta'lism tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha tavsiyalar ham keltirilgan. Maqola xalqaro tajribalarni chuqur tahlil qilish orqali mahalliy ta'limi takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'z: ta'lism, Finlandiya, Germaniya, ta'lism bosqichlari, o'qitish metodlari, modernizatsiya, baholash tizimi.

Аннотация. В статье изучаются системы образования зарубежных стран, анализируются их преимущества, методические подходы и важные аспекты образовательной политики. В частности, качество образования, методы обучения, системы оценки и подходы, ориентированные на учащихся, были изучены в развитых странах, таких как Финляндия и Германия. Даны также рекомендации по модернизации узбекской системы образования на основе зарубежного опыта. Статья направлена на улучшение местного образования посредством глубокого анализа международного опыта.

Ключевые слова: образование, Финляндия, Германия, ступени образования, методы обучения, модернизация, система оценки.

Abstract. This article studies the education systems of foreign countries, analyzes their advantages, methodological approaches and important aspects of educational policy. In particular, the quality of education, teaching methods, assessment systems, and student-centered approaches are considered in the case of developed countries such as Finland and Germany. Recommendations are also made on the modernization of the education system of Uzbekistan based on foreign experience. The article serves to improve local education through an in-depth analysis of international experience.

Keywords: education, Finland, Germany, stages of education, teaching methods, modernization, assessment system.

Kirish. Hozirgi kunda dunyoning har bir burchagida ta'lism sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda va bundan tashqari yangidan yangi innovatsiyalar kiritilmoqda. Bu esa o'z o'zidan mamlakatimizni jahon ta'lism tizimini yanada ko'proq o'r ganishga va o'r ganilgan tajribalari asosida, yurtimiz ta'limi yanada rivojlantirishga asos bo'ladi.

Prezidentimiz aytganidek: "Dunyo ta'limidagi ilg'or tajribalarni o'r ganish va ularni O'zbekistonga olib kirish bizning strategik vazifamizdir". Ushbu so'zlar bejizga emas, o'r ganilgan xorijiy ta'lism tizmi shaxsni rivojlantirishga, mustaqil fikrlashga va ishlashga o'rgatishiz lozim. Xorijiy mamlakatlarning ta'lism tizmini o'r ganish bilan bir qatorda, ularni o'z

mamlakatimiz muhitiga moslab amalda qo'llay olishimiz ham zarur. Asosan hozirgi kunda yurtimiz maktablarida Finlandiya ta'lim tizmi asosida darsliklari tuzildi va joriy etildi. Ushbu darsliklar asosan o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, o'z fikrlarini erkin bayon eta olishga va bundan tashqari har qanday vaziyatni real hayotga bog'lagan holda yondashishga o'rgatadi.

Germaniya, Singapur va AQSH mamlakatlarining ta'lim tizmi ham o'rganib borilmoqda. Ko'plab talaba yoshlar chet elda o'qish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda, bundan tashqari kadarlarni qayta tayyorlash uchun o'qituvchilarni xoriy mamlakatlarda malaka oshirishlari uchun katta imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bu esa mamlakatimiz ta'lim tizmini yanda rivojlantirishga, PIRLS, PISA va boshqa xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalariga erishishga yordam beradi. Bulardan asosiy maqsad kelajakda mamlakatimiz nufuzini yuqoriga ko'tarish va yurtimiz uchun bilimli, erkin fikrlaydigan barkamol avlodni yetkazib berishdir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganib, ularni sharoitimizga moslab tatbiq qilish kerakligini aytdik. Keling, misol tariqasida rivojlangan davlatlardan biri bo'lган Germaniya ta'lim tizimini ko'rib chiqamiz. **Germaniya** – jahon ilm-fani va madaniyati o'choqlaridan biri. Bu mamlakat ildizi asrlarga borib taqaluvchi ilmiy maktablarni, Gyote, Gegel, Betxoven, Nitshe, Eynshteyn singari olim va ijodkorlarni bilan dunyoga mashhur. Xalqaro doirada e'tirof etilgan olmon ta'lim dargohlarida mustaqil fikr hamda keng dunyoqarash shakllanishiga alohida e'tibor beriladi. Ta'lim tizimiga tatbiq etilayotgan yangi usullar, so'nggi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanmaganlarga esa juda qiyin. Germaniyada ta'lim tizmi asosida uch bosqichdan iborat:



Mamlakatda 16 ta federal hududlar mavjud bo'lsa, ularning har biri o'zining ta'lim to'g'risidagi qonuniga ega. Shu sababli federal hududlarning maktab ta'lim tizimida ayrim farqlar bor. Masalan, aksariyat hududlarda boshlang'ich ta'lim 4 yil (birinchi sinfdan to'rtinchiga qadar), poytaxt Berlinda esa – 6 yil. Ammo bu kabi farqlarga qaramasdan, barcha hududlar uchun umumiyl tartib-qoidalar amal qiladi. Germaniyada maktab ta'limi majburiy va bepul. 6 yoshdan 18 yoshgacha fuqarolar majburiy tartibda ta'lim olishi shart qilib belgilangan. Maktab ta'lim tizimi esa boshlang'ich, o'rta va yuqori bosqichlarga bo'linadi.

Ikki yoki uch yoshdan katta bolalar uchun nemis maktabgacha ta'limning asosiy yo'nalishlari:

- Til, yozish, muloqot,
- Shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish,
- Qadriyatlar va diniy ta'limni rivojlantirish,
- Matematika, tabiiy fanlar, (axborot) texnologiyasi
- Tasviriy san'at/turli media bilan ishlash

-Tana, harakat, salomatlik
-Tabiat va madaniy muhit.

Boshlang'ich ta'limda dastlabki 2 yil mobaynida o'quvchilar baholanmaydi.

O'qituvchilar baho o'rniga bolaning individual rivojlanish holati xususida hisobot tayyorlaydi va o'zlashtirish tavsifnomasi beriladi. Boshlang'ich ta'lim Grundshule deb yuritiladi.

Bolalar 5-6 yoshdan bos-hlang'ich maktabga qatnaydi. Boshlang'ich maktabda o'qish davri 4 yildan 6 yilgacha. Maktablarda birinchi, ikkinchi sinf davomida o'quvchilarga baho qo'yilmaydi. O'qituvchilar baho o'rniga bolaning individual, psixologik rivojlanish holati xususida hisobot tayyorlaydi. O'quvchilarga 3-sinfdan baho qo'yila boshlaydi. Germaniyada 6 ballik baholash tizimi qabul qilingan. Shu baholash tizimi bo'yicha boshqa maktab tizimlaridan farq qiladi. Bunga ko'ra,

- 1 - a'lo;
- 2 - yaxshi;
- 3 - qoniqarli;
- 4 - yetarli;
- 5 - yetarli emas;
- 6 - qoniqarsiz.

O'quvchilar fanlarni eng kamida "4"ga o'zlashtirishi kerak. Boshlang'ich bosqichda bolalarga matematika, nemis tili, tabiatshunoslik, musiqa, estetika fanlari o'tiladig. Germaniyada kamroq raqobatbardosh tizim mavjud, buning natijasida tala-balar o'rtaida qo'rqtish darajasi past va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqlaydi, lekin Janubiy Koreya kabi OECD mamlakatlariiga nisbatan o'ziga ishonch va umumiy baxt darajasi yuqori.

Germaniyada Yevropaning boshqa davlatlariga qaraganda bepul oliv ta'lim olish imkoniyati ko'proq. Nodavlat jamg'armalar hamda hukumat grantlari asosida xorijliklar ham nemis universitetlarida tahsil olishi mumkin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mahalliy gimnaziyalarni bitirib, ityozi shahodatnomani olgan yoshlar universitetlarga imtihonsiz kiradi.

Chet elliklar esa o'qishga kirish uchun nemis tili bo'yicha imtihondan o'tadi.

Universitetlarda bakalavr bosqichi to'rt yarim yilgacha, magistratura bir yildan to'rt yilgacha, doktorantura ikki yildan besh yilgacha davom etadi. Odatta, bakalavriat va magistratura talabalari o'qish yakunida davlat imtihoni topshiradi va dissertatsiya himoya qiladi. Talaba o'qish uchun qishki yoki yozgi o'quv mavsumini tanlash huquqiga ega. Kasbiy oliv maktablar yoki institutlar olmon ta'lim tizimining o'ziga xos bo'g'ini sifatida muhandis, iqtisodchi, dizayner, mashinasozlik, ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari va sog'liqni saqlash yo'nalishlarida mutaxassislar yetkazib beradi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Germaniyaning 370dan ortiq oliv ta'lim muassasalarida 2 millionga yaqin talaba, jumladan, 246 ming xorijlik tahsil olmoqda. Olmon yurti chet ellik talabalar soni bo'yicha dunyoda AQSH va Buyuk Britaniyadan keyingi o'rinda turadi.

Finlandiya ta'lim tizmi. Finlyandiya ta'lim tizimi o'zining yuqori sifati bilan mashhur bo'lib, erta bolalikdan tortib to oliv ta'limgacha bo'lgan barcha darajadagi keng qamrovli va teng huquqli ta'limni ta'minlashga qaratilgan. Tanqidiy fikrlash va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida o'zlarining turli xil usul va metodlaridan foydalanishadi.

Finlyandiya ta'lim tizimi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

-Maktabgacha ta'lim: erta bolalik ta'limi va parvarishi hamda umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan maktabgacha ta'lim (7 yoshgacha);

-Umumiy o'rta ta'lim: boshlang'ich va tayanch o'rta ta'lim;

-O'rta-maxsus ta'lim: umumiy o'rta-maxsus ta'lim yoki kasbiy ta'lim va tayyorgarlik;

-Oliy ta'lim;

-Katta yoshlilar uchun ta'limning barcha bosqichlari.

Germaniyada maktabgacha ta'lim 0 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun muktab ta'limining ixtiyoriy bosqichidir. Majburiy ta'limni (boshlang'ich muktab) 7 yoshga to'limgan bolalar uchun ham xususiy, ham davlat bolalar va yoshlarni muhofaza qilish xizmatlari ko'rsatadi. Umumta'lim muktablari 7 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan barcha bolalarni boshlang'ich (1-6 sinflar) va tayanch o'rta ta'lim (7-9 sinflar) darajasida qamrab oladi. 1-sinfdan 6-sinfgacha bo'lgan o'quvchilar pedagogikaga asoslangan sinf rahbardan, 7-9-sinf o'quvchilari esa ma'lum fanga ixtisoslashtirilgan fan o'qituvchilaridan bilim olishadi. Xuddi mana shu holat O'zbekiston ta'lim tizmiga o'xshashroq, faqat bizda 1-4-sinfgacha sinf rahbardan bilim olinsa, 5-11-sinflar esa fan o'qituvchilaridan saboq olishadi.

Finlandiyada boshlang'ich va o'rta ta'lim majburiy hisoblanadi, boshlang'ich va tayanch ta'lim bepul. Dars jarayonlari odatda 9:00- 9:45dan boshlanadi. O'quvchilarni akademik natijalarini baholash asosan 6-9 sinflarni tugatayotgan vaqtida amalga oshiriladi. Bitta sinfda asosan o'quvchilar soni 19-20tadan iborat bo'ladi.

Finlandiyada boshlang'ich sinfni o'qitish "Juft hamda toq" metodida o'qitish ham juda ommalashgan. Ya'ni bu qanday, juft metodi bu yuqori va past o'zlashtiruvchi o'quvchiga dars o'tiladi, bunda past o'zlashtiruvchi o'quvchini mavzuni tushunmagan qismini yuqori o'zlashtiruvchi o'quvchi u tushunadigan sodda so'zlardan foydalangan holda tushuntirib beradi.

Toq usulda esa, past o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan ham fan o'qituvchisi, ham to'garak o'qituvchisi bosqichma-bosqich shug'ullanadi, yakuniy bosqichda esa past o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan ota-onal shug'ullanadi. Natijada past o'zlashtiruvchi o'quvchi sinfdagi yuqori o'zlashtiruvchi o'quvchilarga yetib oladi.

Finlandiya oliy ta'lim tizimi: boshlang'ich oily ta'lim (bakalavriat) va oliy ta'lim (magistratura), oliy ta'limdan keyingi ta'lim aspirantura va doktaranturaga bo'linadi. Bakalavriat ta'lim tizmi 3 yil davom etadi. Magistratura va aspirantura 2yil ta'lim olinadi. Doktorantura esa 4 yil davomida amalga oshiriladi. Bakalavriat ta'limi uchun 180 kredit, magistratura uchun 120 kredit, aspirantlar 60 kredit, doktarantura esa 240 kreditni tashkil etadi. Finlandiyada 2016-yilgacha oliy ta'lim bepul bo'lgan, lekin 2017-yildan boshlan ushbu qonun bekor qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishda Finlyandiya ta'lim tizimini o'rganish va joriy etish bo'yicha belgilab bergen vazifalari ijrosini ta'minlash maqsadida ushbu mamlakat ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston delegatsiyasi 2021-yil noyabr oyida Finlyandiyaga tashrif buyurgan edi. Tashrif davomida mamlakatimizdagi davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari bilan Finlyandiyaning yetakchi universitetlari o'rtasida o'zaro akademik mobillikni kuchaytirish va hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha kelishib olindi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatlar ta'lim tizimini o'rganish shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlar ta'lim siyosati zamonaviy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar,

o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan metodlar va sifatli pedagogik muhitga asoslangan. Finlandiya, Germaniya va boshqa ilg'or mamlakatlar tajribasi ta'limda uzlusizlik, amaliyotga yo'naltirish, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. O'zbekiston ta'lim tizmi ham so'nggi yillarda keng ko'lamli islohotlar yo'lidan bormoqda, jumladan xalqaro hamkorlik, xorijiy universitetlar filiallarini ochilishi, o'qituvchilarning malakalrini oshirishga doir turli xil ishlar misol bo'la oladi. Xorijiy tajribani o'rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish orqali O'zbekiston ta'lim tizmini yanada takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilgi Murojaatnomasidan.
2. "Finlandiya boshlang'ich ta'lim tizimi" Niyozova Guli maqolasi
3. "Germaniya ta'lim tizmi va uning o'ziga xos jihatlari" N.Xasanboeva maqolasi
4. "Germaniya ta'lim tizimi to'g'risida bilasizmi?" Risolat Madieva matni.
5. "Germaniya ta'lim tizimi" Iroda Sultanbayeva maqolasi
6. Rasulov S. "Ta'lim sohasida xorijiy tajribalar va O'zbekiston amaliyoti- Toshkent: "Iqtisod-Moliya" 2020
7. WWW. Gazeta.uz